

МИЛЛИЙ ТИББИЁТ

САЛОМАТЛИК – МИЛЛИЙ БОЙЛИК

МЕНЮ

КАСАЛЛИКЛАР 0 COMMENTS

Yurakning tuzulishi va tug'ma anomaliyalari

Nurulloyev Jurabek Shavkidinovich

University of Business and Science (UBS) Toshkent filiali

Tabiiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Kalit so'zlar: yurak, aorta, arteriya, vena, anomaliya, klapanlar, mitral klapan, uch tabaqali klapan, aortal klapan, o'pka arteriyasi klapani, stenoz, mitral teshik stenoz, uch tavaqali teshik stenoz, aortal teshik stenoz, o'pka arteriyasi teshigi stenoz.

Ilmiy ish dolzarbligi: yurakning tug'ma nuqsonlari tibbiyot va biologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biri bo'lib, dunyodagi eng keng tarqalgan tug'ma kasaliklardan biri bo'lib, har 1000 yangi tug'ilgan chaqaloqdan 8-10 tasida uchraydi. Og'r holarda erta yoshda o'lim xavfini oshradi, ayniqsa, jarrohlik aralashuvi o'z vaqtida amalga oshrilmasa.

Yurak – (lot. cor yurak) organizimda qon aylanishini ta'minlovchi asosiy mushak bo'lib, u to'rtta bo'lim: ikkita bo'lmacha va ikkita qorinchadan iborat. U kislarodli arterial va kislarodsiz venoz qonni to'g'ri yo'nalishda haydash uchun klapanlar va qon tomirlari bilan chambarchas bog'langan. Yurak to'rtta asosiy qismdan iborat: o'ng bo'lmacha (atrium dextrum) – korbanat angidritga to'yingan qonni butun tanadan yuqori va pastki kovak venalardan qabul qiladi. O'ng qorincha (ventriculus dexter) – o'ng bo'lmachadan qabul qilgan venoz qoni o'pka arteriyasi orqali, o'pkaga yuboradi.

Chap bo'lma (atrium sinistrum) – kislarodga to'yingan qoni to'rtta o'pka venasi orqali qabul qiladi. Chap qorincha (ventriculus sinister) – kislorodga to'yingan qonni chap bo'lmachadan qabul qilib, aorta orqali butun tana bo'ylab yo'naltradi.

Yurak klapanlari: yurak ichida qonni to'g'ri yo'nalishida harakatlantrish uchun

to'rtta klapan mavjud. Mitral klapan – chap bo'lma va chap qorincha o'rtasida. Trikuspidal klapan – o'ng bo'lma va o'ng qorincha o'rtasida. Aortal klapan – chap qorincha va aorta o'rtasida. O'pka klapani – o'ng qorincha va o'pka arteryasi o'rtasida.

Yurak devori uch qavatdan iborat: endokard, miokard, epikard. Endokard yurakning ichki qavati bo'lib, juda ahamiyatli qavat hisoblanadi. Bu qavat bo'lmalalar va qorinchalar o'rtasida qalinlashib ikki va uch tavaqali klapanlarni hosil qiladi. Miokard yurakning asosi hisoblanadi. Mushak tolalari bo'lmalalarda ikki qavat, qorinchalarda uch qavat bo'lib yo'nalgan. Mushak tolalari bo'ylama va serkulyar yo'nalib yurak uchda girdob hosil qilib, yurak ichga kirib so'rg'ichsimon muskularni hosil qiladi. Bo'lmalalarda taraqsimon mushaklarni hosil qiladi.

O'tkazuv sestemasi: sinoatrial tugun yurak ritmi boshqaruvchisi, atroventikulyar tugun bo'lma va qorincha tuguni, His tutami ikkita oyoq hosil qilib ikkita qorinchaga yo'naladi. Purkine tolalari yurak devori bo'ylab tarqalgan.

Tug'ma yurak anomaliyalari: Tug'ma yurak nuqsonlari homiladorlik paytida yurak rivojlanishidagi buzulishlar natijasida yuzaga keladi. Bu anomaliyalar eng ko'p uchraydigan tug'ma nuqsonlar qatoriga kiradi.

Hozrgi kunda ko'p uchrayotgan tug'ma yurak anomaliyalari:

Yurak devori nuqsonlari: interventrikulyar septal nuqson – yurak qorinchalar orasidagi devorda teshik bo'lishi. Interatrial septal nuqson – yurak bo'lmalari orasidagi devor to'liq yopilmagan bo'lishi.

Botallo yo'lakchasining ochiq qolishi: homilada ochiq bo'lishi kerak bo'lgan arterial yo'lakcha (ductus arteriosus) tug'riqdan keyin yopilmay qolishi yurak zo'riqishiga olib keladi.

Fallot tetradasi: bu to'rtta asosiy nuqson hisoblanadi. Bular: interventrikulyar septal nuqson, o'pka arteryasining torayishi (stenoz), aorta noto'g'ri joylashishi, o'ng qorinchaning mushaklari qalinlashishi.

Aorta yoki o'pka arteryasining stenozlari: aortal stenoz – aorta klapanining torayishi tufayli yurakdan chiqayotgan qon miqdori kamayadi. O'pka arteryasi stenoz – o'pka tomirining torayishi natijasida kislarodga boy qon aylanishi buzuladi.

Transpozitsiya anomaliyalari: aorta va o'pka arteryasi almashib qoladi. natijada qon aylanishi buzuladi.

Tug'ma anomalyalarning belgilari.

Ko'karish – qon kislarodga to'yinmaganligi sababli qon to'q ko'k ranga kiradi. Bunda tez charchash va hansirash, nafas olish qiyinlashishi, oyoq – qo'llarning sovushi va shishgan bo'lishi, bolalarning sust o'sishi va rivojlanishi.

Tug'ma yurak anomaliyalarini oldini olish va nazorat.

Homiladorlikni rejalashtirish va tibbiy ko'riklardan o'tish. Homiladorlik davrida zararli odatlardan voz kechish sog'lom turmush tarziga rioya qilish. Yuqumli kasalliklardan ehtiyot bo'lishi va vaksinatsiya qilish. Genetik tekshruvlardan o'tish kerak. Tug'ma yurak anomalyalari zamonaviy tibbiyot yutuqlari tufayli ko'p hollarda muvaffaqiyatli davolanadi.

Xulosa

Yurak – inson organizmining asosiy hayotiy organi bo'lib, uning to'g'ri ishlashi butun tananing sog'lig'iga bevosita ta'sir qiladi. Tug'ma yurak anomaliyalari homiladorlik paytida yurakning noto'g'ri rivojlanishi natijasida yuzaga keladi va ularning ayrimlari bolaning tug'ilishidan oldin yoki keyin tashxislanishi mumkin. Bu anomaliyalar turlicha bo'lib, yurak devorining teshikligi, klapanlarning stenozlari, arteryalar joylashuvining buzulishi kabi jiddiy nuqsonlarni o'z ichiga oladi. Kasallikning og'irlik darajasiga qarab, bemorlar medikamentoz, kateterizatsiya yoki jarohlik usullari yordamida davolanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odam anatomyasi N.K.Ahmedov Toshkent ibn Sino nomidagi nashryot-matbaa birlashmasi 1991-yil [670]
2. Odam anatomyasi F.N.Bahodirov Toshkent <<TTB>> bosmaxonasida chop etldi.
3. Odam anatomyasi B.Bojidov, Muxamedov.U. Toshkent <<TTB>> bosmahonasida chop etldi.
4. Medical physiology Guyton A.C, Hall.J.E Elsevier nashryoti 2022-yil nasrdan chiqan.



+15




Рейтинг статьи



✉ Obuna bo'lmoq ▼

U bilan bog'lash  | [↗ Kirish](#)



Retyinglar faqat haqiqiy sharhlarga asoslangan



0 ОТЗЫВОВ

Похожие сообщения

Oyoq sohasining muskullari. Son mushaklari. Son kanali. Son uchburchagi

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 6 COMMENTS](#)

Tayanch harakat bo'limi. Osteologia. Tana skeleti. Umurtqa pog'anasi. Birinchi bo'yin umurtqasi – atlas. Ikkinchi bo'yin umurtqasi – axis. III – VII – chi bo'yin umurtqalari. Ko'krak umurtqalari – vertebrae

Siydik chiqaruv azolari sistemasi Buyrak Siydik qopi

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 4 COMMENTS](#)

Эссенциал артериал гипертензия (гипертония – хафақон касаллиги) қон босими ошиши давления

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 4 COMMENTS](#)

thoracicae. Bel
umurtqalari –
vertebrae
lumbales.
Dumg'aza
umurtqalari –
vertebrae
sacrales.
Dumg'aza
suyagi – os
sacrum. Dum
umurtqalari –
vertebrae
coccygeae

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 5 COMMENTS](#)

Даволовчи
парҳез
дастурхони
(диета столи)

[📖 АҲОЛИГА](#)

[💬 4 COMMENTS](#)

Yurak (cor) ning
anatomiyasi

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 3 COMMENTS](#)

Angiologiya –
qon tomirlar
haqidagi fan
Arteriyalarning
tarmoqlanish
qonuniyatlari

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 2 COMMENTS](#)

Diareyaning
turlari. Istemol
qilish mumkin
bo'lgan
mahsulotlar:

[📖 АҲОЛИГА](#)

[💬 2 COMMENTS](#)

РЕВМАТОИД
АРТРИТ

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 2 COMMENTS](#)

МИОКАРД
ИНФАРКТИ.
Келиб чиқиши,
текшириш,
даволаш,
олдини олиш.
Тўлиқ
маълумот |
Miokard infarkti.
Kelib chiqishi,
tekshirish,
davolash, oldini
olish. To'liq
ma'lumot

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 2 COMMENTS](#)

СИРКА
КИСЛОТАСИ
БИЛАН
ЗАХАРЛАНИШ
ДА
РЕАНИМАЦИЯ
ВА ИНТЕНСИВ
ТЕРАПИЯ

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 1 COMMENT](#)

18+ Ayollar jinsiy
azolari Siydik
chiqaruv nayi
Bachadon nayi
Bachadon Qin
Diloq (klitor)
Oraliq Chanoq
diafragmasi

[📖 КАСАЛЛИКЛАР](#)

[💬 1 COMMENT](#)



Сайтимиз ота онамиз томонларидан
ўтган барча мўъмин – мўъмина ва
муслим – муслималар хотираларига
бағишланди.

Авторское право ©2018- 2025

- ✎ Миллий тиббиёт-
Порталимиздаги
материаллар тиббиёт
ходимлари учун ахборот
сифатида мўлжалланган.